

PSIXOLOGIYA METODLARI VA TARMOQLARI

Rustamova Bahor Ilyor qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Aniq va Tabiiy fakulteti matematka yo'nalishi

1-kurs 1-M 24 talabasi

Shomurotov Ulug'bek Meliboboyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixalogiya

Kafedrasi o'qituvchisi (maqola ilmiy rahbari)

ulug'bekshomrotov986@gmail.com

Annonatsiya: Maqolada psixologiya tarmoqlari haqida tushuncha berilgan. Shuningdek, psixologiya metodlari, kuzatish va tinglash, zamonaviy metodlar haqida keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: diagnostika, psixik jarayon, psixologiya tarmoqlari, metodlari, pedagogik psixologiya.

KIRISH.

Hozirgi kunda psixologiya fani sir-asrorlarini har bir o'quvchi uchun zarur bo'lgan jihatlarini, chunonchi: psixologiyaning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi, hamkorligi, bog'liqligini; psixologiyaning zamonaviy yo'nalishlari va tarmoqlarini; shaxsni psixologik diagnostika qilish usullarini; shaxs va jamiyat munosabatlarini uyg'unligini; shaxs faoliyati va hatti-harakati motivlarini; faoliyati turlarini; shaxsda kuzatiladigan psixik jarayonlar: sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayolni bilish va ularni boshqarish qonuniyatlarini qo'llay olishni; shaxsdagi qobiliyat, xarakter va temperament kabi individual psixologik xususiyatlarning shaxs faoliyati va hayotidagi tutgan o'rnnini; shaxsning turli yosh davrlarga bog'liq xususiyatlarini; shaxsning muloqot

jarayonidagi shakl, tur, vositalarini; shaxsning guruhga va o‘z navbatida guruhning shaxsga ta’sirini; o‘quv va tarbiya jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan samarali usullarni bilish, o‘rganish muhimdir.

ASOSIY QISM.

“Psixologiya” so‘zi ikkita grek so‘zlaridan – “psyche” – jon, ruh va “logos” – ta’limot, ilm so‘zlaridan iborat bo‘lib, an’anaviy ma’noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmeti har birimizning tashqi olamni va o‘z-o‘zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlar tashkil etadi. Psixologiya bo‘yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqachaqilib, psixikadir, deb ta’rif berishadi. Psixika – bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) 4

ongli tarzda aks ettirishimizni, ya’ni bilishimiz, anglashimizni ta’minkaydi. Lekin bu qisqa ta’riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto‘g’ri bo‘ladi. CHunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma-xilki, biz ba’zan o‘z-o‘zimizni ham tushunmay qolamiz.

Psixologiyaning fan sifatida dunyoga kelishi va rivojlanishi tarixi qator olimlarning ilmiy izlanishlarida bayon etilgan. Frantsiyalik olim J.Godfruaning “CHto takoe psixologiya” nomli 2-jilddan iborat kitobida antik dunyodan boshlab inson psixikasi, uning qalbi, hislari, xulqi masalalari diqqat markazda bo‘lgan ekanligi, psixologiyaning fan sifatida rivojlanishida faylasuflarning qarashlari, tabiiy fanlar rivoji, 17-asrdan boshlab falsafa fanidan turli fanlarning ajralib chiqishi, 18 va 19- asrlarda Kondil’yak, Lokk, Yum yondashuvlari asoslab berilgan.

Psixologiyaning 300dan ortik tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda psixologiyaning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi.

umumiy psixologiya – psixologiyaning barcha masalalarining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganadigan maxsus sohasi;

pedagogik psixologiya – kishiga ta’lim va tarbiya berishni psixologik qonuniyatlarini o‘rganishni o‘z predmeti deb biladi;

yosh davrlari psixologiyasi – turli yoshdagi odamlarning tug’ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o‘zaro munosabatlari qonuniyatlarini o‘rganadi;

ijtimoiy psixologiya – odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliylarini natijasida ularda hosil bo‘ladigan tasavvurlar, fikrlar, e’tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o‘rganadi;

mehnat psixologiyasi – kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o‘rganadi;

injenerlik psixologiyasi – avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorning faoliyatini, odam-texnika o‘rtasida funktsiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o‘rganadi;

yuridik psixologiya – huquq sistemasining amal qilishi bilan bog’liq masalalarning psixologik asoslarini o‘rganadi;

harbiy psixologiya – kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo‘ladigan xulq-atvorini, boshliqlar bilan ijro etuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o‘rganadi;

savdo psixologiyasi – jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga oid, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko‘rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi kabi masalalarini ko‘radi;

tibbiyot psixologiyasi – shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o‘rganadi.

Introspektoriya — bu o‘z aqliy jarayonlarini kuzatish, hech qanday vositalarni ishlatmasdan o‘z ruhiy hayotini bilish.

Kuzatish — jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini jarayonning o‘zida faol ishtirokisiz o‘rganish.

Eksperiment — bu ma'lum bir jarayonni tajribalar orqali o'rganish. Tajriba maxsus belgilangan sharoitlarda faoliyatni simulyatsiya qilish asosida qurilishi yoki odatdagi faoliyatga yaqin sharoitlarda o'tkazilishi mumkin.

Rivojlanish tadqiqotlari — bir necha yillar davomida kuzatilgan bir xil bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.

Psixologiya metodlari — kelib chiqishi

Zamonaviy psixologiyaning kelib chiqishida Aristotel, Ibn Sino, Rudolf Goklenius birinchi bo'lib «psixologiya» tushunchasini ishlatgan. Zigmund Freydni esa hatto psixologiyaga aloqasi bo'limgan odam ham eshitgan. Fan sifatida psixologiya 19- asrning ikkinchi yarmida falsafa va fiziologiyadan ajralib chiqqan holda paydo bo'ldi. Psixologiya psixikaning mexanizmlarini, ongsiz ravishda va shaxs tomonidan amalga oshirilishini o'rganadi.

XULOSA.

Psixologiya nima uchun kerak? Inson o'zini bilish va yaqinlarini yaxshiroq tushunish uchun psixologiyaga murojaat qiladi. Ushbu bilim ularning harakatlarining haqiqiy motivlarini ko'rish va anglashga yordam beradi. Psixologiya ruh haqidagi fan deb ham ataladi, inson hayotning ma'lum bir lahzalarida o'ziga savollar berishni boshlaydi — «men kimman?», «Men qayerdaman?», «Nega men bu yerdaman?» Nima uchun odamga bu bilim va ong kerak? Psixologiya hayot yo'lida qolib ketmaslik, bir ariqqa keyinchalik qayta tushmaslik va yiqligadan so'ng ko'tarilishga kuch topish va davom etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vohidov M., Maktabgacha tarbiya psixologiyasi, T., 1970;
2. Davletshin M., Krbiliyat va uning diagnostikasi, T., 1979;
3. Tokareva V., Talaba shaxsining axloqiy rivojlanish psixologiyasi, T., 1989;
4. G'oziyev E., Psixologiya fani XXI ayerda, T., 2002;
5. G'oziyev E., Psixologiya, T., 2003;
6. Qodirov B., Layoqat psixologiyasi, T., 1989;

7. Shoumarov G‘., Oila psixologiyasi, T., 2000;
8. Karimova V., Ijtimoiy psixologiya, T., 1994.
9. Ergash G‘oziyev.[1]